



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING  
BUYRUG‘I**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son qarori ijrosi haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ–393-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida **buyuraman:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son qarori (keyingi o‘rinlarda – qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

**2.** Qaror bilan:

2025-yil 1-iyundan umumiy o‘rta (Prezident, ijod, ixtisoslashgan ta‘lim muassasalari) ta‘lim tashkilotlarida (keyingi o‘rinlarda - ta‘lim tashkilotlari) vatanparvarlik ruhida yoshlarni tayyorlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari – harbiy chaqiriqqacha tayyorgarlik (keyingi o‘rinlarda -ChQBT) rahbari lavozimi tugatilib, shtat birliklari Mudofaa vazirligiga o‘tkazilganligi va mazkur shtat birliklari hisobidan ChQBT rahbari lavozimi joriy etilganligi, bundan buyon ushbu lavozimlarga harbiy ta‘lim fakultetlari, Qurolli Kuchlarning rezervi (zaxira)dagi oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan oddiy askar, serjant, shuningdek, ofitserlar tarkibiga mansub kontrakt bo‘yicha xizmatchilar qabul qilish amaliyoti joriy etilayotganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

**3.** Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining (keyin o‘rinlarda-vazirlik) o‘quvchilarda Vatan himoyachisi bo‘lishga mehr va havas uyg‘otish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**4.** Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov), Moliya –iqtisod departamenti (I.Siradjev), Ta‘lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov) ikki hafta muddatda vazirlik shtat birliklari doirasida markaziy apparat tarkibida Vatanparvarlik va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish bo‘limini tashkil etish choralari ko‘rsin.

5. O'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Respublika ta'lim markazi (Sh.Xudaykulov)ga Mudofaa vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda:

2025-2026-o'quv yilidan boshlab respublikada "Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usi, faol hayotiy pozitsiya" tamoyiliga asosan yangilangan ChQBT fanining o'quv dasturi va darsliklarini yaratish;

ta'lim tashkilotlarida ChQBT fani haftasiga ikki soatdan o'qitilishini belgilash, bunda tayanch o'quv rejada 10-11-sinflarga haftasiga bir soatdan qo'shimcha yuklama kiritish vazifalari yuklatilsin.

6. Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish bo'limi (I.Xoldarova):

a) 2025-2026-o'quv yilidan boshlab "Jasorat maktablari"da sport turlari bo'yicha "Barkamol avlod" bolalar maktablarining tarmoq to'garaklari faoliyatini yo'lga qo'ysin;

b) ta'lim tashkilotlarida "Turon" maktab teatr tanlovlarini muntazam ravishda o'tkazib borsin;

d) ikki oy muddatda:

Mudofaa vazirligi bilan birgalikda o'quvchilar o'rtasida kibersport, dron va robototexnika, kelajak o'yinlari bo'yicha alohida tanlovlar tashkil etish yuzasidan qo'shma qaror loyihasini;

o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini bosqichma-bosqich kuchaytirib borish va ularning yoshidan kelib chiqqan holda dastlabki normativlar topshirish tizimini ishlab chiqish choralari ko'rsin.

7. Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov)ga Mudofaa vazirligi bilan birgalikda 2025-2026-o'quv yilidan boshlab:

ta'lim tashkilotlarida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish;

"Jasorat maktablari" o'quvchilarini o'quv yili davomida ikki marta harbiy poligonlarda, har chorakda bir marta harbiy qismlarda amaliy mashg'ulotlar olib borish;

o'quvchi-yoshlarni harbiy ta'lim muassasalariga saralash ishlarini tashkil etish;

"Vatan tayanchi" otryadi faoliyatini boshqarish hamda harbiy qism va poligonlarda amaliy mashg'ulot o'tkazish;

harbiylar hayotiga oid vatanparvarlik g'oyasidagi qo'llanmalar, film, ijtimoiy rolik, badiiy asar, turkum ko'rsatuvlar yaratish;

o'quvchi-yoshlarni o'rtasida harbiy-sport musobaqalari va intellektual viktorinalar tashkil etish yuzasidan qabul qilinadigan qo'shma qarorga takliflar tayyorlash hamda Yoshlar ishlari agentligiga kiritish vazifalari yuklatilsin;

**8.** Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov) ikki oy muddatda Mudofaa vazirligi bilan ta'lim tashkilotlarida harbiy vatanparvarlik tarbiyasini to'rt bosqichda amalga oshirishga qaratilgan konsepsiyani ishlab chiqisin.

**9.** Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev), Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov) Mudofaa vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda ChQBT rahbarlarini Toshkent davlat pedagogika universiteti, Farg'ona davlat universiteti va Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta'lim fakultetlarida qayta tayyorlash, malakasini oshirish yuzasidan o'quv dastur va reja ishlab chiqishda ishtirok etsin.

Bunda, malaka oshirish davomida ChQBT rahbarlarini o'quv-mashq harbiy yig'inlar harbiy poligonlarida, pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida o'tkazilishi inobatga olinsin.

**10.** Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari:

a) 2025-yil 1-iyundan ta'lim tashkilotlaridagi Vatanparvarlik ruhida yoshlarni tayyorlash bo'yicha direktor o'rinbosari – harbiy chaqiriqqacha tayyorgarlik rahbari lavozimi tugatilishi munosabati bilan shtat birliklari qisqartirilayotgan xodimlarni O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida belgilangan tartibda ogohlantirish choralarini ko'rsin;

b) mahalliy davlat hokimiyati organlari, hududlardagi tegishli harbiy-ma'muriy sektor bilan hamkorlikda:

qarorda belgilangan vazifalarni o'z muddatlarida sifatli bajarilishini ta'minlab borisin;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Vatanparvarlik burchagi"ni tashkil etsin;

xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, eng avvalo, sohibqiron Amir Temurning bebaho merosi, Vatanimiz ozodligi va el-yurt tinchligi yo'lida mardlik va jasorat ko'rsatgan vatandoshlarimizning qahramonligi asosida, O'zbekiston xalqiga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha uchrashuvlar va davra suhbatlarini tashkil etib borsin.

**11.** Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov), Yuridik boshqarma (O.Ibrohimov) bir oy muddatda qonunchilik

hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Mudofaa vazirligiga takliflar kiritsin.

**12.** Devonxona (H.Raximbayeva) mazkur buyruqni bir kun muddatda vazirlikning tarkibiy bo'linmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda vazirlik tizimidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

**13.** Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o'rinbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklansin.

**Vazir**

Toshkent sh.,  
2024-yil " 22 " -noyabr,  
373-son



**X.Umarova**